

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT
CHET TILLARI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/27.12.2025.Fil.35.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

MUZAFFAROV JAVLON KODIRJONOVICH

**JON TOLKIN ASARLARIDA MIFOLOGIK ARXETIPLAR VA EPIK
AN'ANALARNING ZAMONAVIY BADIY TALQINI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Muzaffarov Javlon Kodirjonovich

Jon Tolkin asarlarida mifologik arxetiplar va epik an‘analarning zamonaviy badiiy talqini..... 3

Muzaffarov Javlon Kodirjonovich

Modern Artistic Interpretation of Mythological Archetypes and Epic Traditions in the Works of John Tolkien 21

Музаффаров Жавлон Кодиржонович

Современная художественная интерпретация мифологических архетипов и эпических традиций в произведениях Джона Толкина..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 43

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT
CHET TILLARI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/27.12.2025.Fil.35.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

MUZAFFAROV JAVLON KODIRJONOVICH

**JON TOLKIN ASARLARIDA MIFOLOGIK ARXETIPLAR VA EPIK
AN'ANALARNING ZAMONAVIY BADIY TALQINI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil5268 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namsifl.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dadaboyev Olimjon Ortiqovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Tursunov Akmaljon Xamidjonovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

To'raeva Bahor Baxriddinovna

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.12.2025.Fil.35.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "15" aprel kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi, 100a-uy. Tel.: +99869-442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz / namdchi-1@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (136 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi, 100a-uy. Tel.: +99869-442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "30" mart kuni tarqatildi.
(2026-yil "30" mart dagi 3 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.T.Dosbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

I.I.Umrzaqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.X.Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida Jon Ronald Ruel Tolkin ijodi butun bir fentezi janrini yaratgan eng ta'sirli adabiy hodisalardan biri bo'lib qolmoqda. Tolkinning zamonaviy o'quvchilar uchun qadimgi arxetiplar va epik tuzilmalarni qanday qayta talqin qilganini o'rganish bizga yigirmanchi asr adabiyotida madaniy uzluksizlik mexanizmlarini va afsonaning yangilanishini tushunishga imkon beradi. Zero, an'anaviy mifologik obrazlarning yangi tarixiy sharoitlarga qanday moslashishi masalasi badiiy adabiyotning rivojlanishini tushunish uchun juda muhimdir. Tolkinning usullarini tahlil qilish bizga arxaik rivoyat shakllari butunlay boshqa davr odamlari uchun qanday dolzarblik va ma'noga ega bo'lishi mumkinligini ko'rishga yordam beradi. Bu esa sohada jiddiy tadqiqotlar olib borish, fentezi yo'nalishida yozilgan asarlarni tadqiq etish, ularning janr xususiyatlarini aniqlashtirish, yozuvchilarning uslublarini o'rganish zaruriyatini belgilab beradi.

Dunyo adabiyotshunosligida fantastika adabiyoti, xususan, ingliz fantastik adabiyotining janr xususiyatlari, mazkur adabiyotning qamrovi, ularning makrokomparativistik va mikrokomparativistik tadqiqatlari hamda poetik jihatlari keyingi davrda qizg'in tortishuvlarga sabab bo'lmoqdaki, bu o'zbek adabiyotshunosligida ham mazkur masalaning tadqiqot obyektiga aylanishiga ijodiy turtki bermoqda. Biroq, shunisi ahamiyatliki, bu izlanishlar hali keng miqyosda amalga oshirilmagani mazkur yo'nalishlardagi ilmiy izlanishlarning zaruriyatini belgilab beradi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ingliz fantastik adabiyot namunalari poetikasi, g'oyaviyligi va mohiyatini tadqiq etuvchi ishlarning kam sonli ekani mazkur sohada ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishning dolzarbligini belgilab beradi.

Mamlakatimizda so'nggi yillar dunyo adabiyotidagi yangicha uslub va yondashuvlarni o'rganish, ijodiy o'zlashtirish va tadqiqotlarda faol qo'llash tamoyili shakllandi. Shuningdek, mustaqillik davri o'zbek prozasida dunyoni badiiy qayta gavdalantirishning G'arbda taraqqiy topgan tamoyillarini o'zbek adabiy-estetik an'analari bilan uyg'unlashtirish amaliyoti yuzaga keldi. "O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasidagi zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"¹. Shu bois, adabiyotshunoslik fani oldiga ham nazariy, ham innovatsion amaliy tadqiqotlarni jahon andozalari darajasida yuksaltirish majburiyati qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni; 2020-yil 11-martdagi 139-son "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" qarorlari va mavzuga oid boshqa meyoriy-huquqiy xujjatlarda

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси // "Халқ сўзи" газетаси, 2017 йил 23 декабрь. (Мурожаат санаси 12.11.2025)

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi².

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida fentezi adabiyoti nisbatan yangi yoʻnalish hisoblansa-da, bu adabiy fenomena ustida ayrim ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, Kristina Foset Jon Tolkin asarlaridagi yirtqich va yovuz obrazlarning asar qahramonlari xarakterini shakllantirishdagi didaktik roli masalasini tadqiq etgan boʻlsa³, Gloriana St. Kler oʻz tadqiqotida Jon Tolkin asarlariga Shimol afsonalarining taʼsirini koʻrsatib bergan⁴. Tomas J.Mak Partlend oʻz maqolasida “Uzuklar hukmdori” asarining mifopoetikasi haqida fikr yuritadi⁵.

Rus adabiyotshunoslaridan bir qator olimlarning tadqiqotlari ham J.Tolkin asarlari tadqiqiga bagʻishlangan. Xususan, I.A.Maklakov “Uzuklar hukmdori” epopeyasidagi oʻrta asrlar ritsarlik romanlari elementlarini hamda mifologik motivlarning asarda qayta yaratilishini tadqiq etgan⁶. Y.A.Nesterova ilmiy ishida Jon Tolkinning “Uzuklar hukmdori” fentezi asarida narsalar va tabiiy elementlarning tahlili amalga oshirilgan⁷. O.S.Potapova dissertatsiyasi J.Tolkinning “Silmarillion” romanidagi miflar poetikasiga bagʻishlangan boʻlsa⁸, A.V.Martyenenkoning ilmiy ishi Jon Tolkinning “Uzuklar hukmdori” trilogiyasidagi fantastika kategoriyasining oʻziga xosligini aniqlashtirib berishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan⁹. Shuningdek, bir qator tadqiqotchilarning maqolalari ham Jon Tolkin ijodiga bagʻishlangan. Jumladan, M.Veykut oʻz maqolasida Jon Tolkinning “Silmarillion” romanidagi kosmogonik miflar poetikasini tahlil qiladi¹⁰.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль, № 28 (6722) // http://lex.uz/pages/getpage.aspxlact_id=3107036; “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2909-сон қарори // http://lex.uz/pages/getpage.aspxlact_id=31711590; // (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017й., 18-сон, 313-модда, 19-сон, 335-модда, 24-сон, 490-модда.

³ Fawcett, Christina. J.R.R.Tolkien and the morality of monstrosity. PhD thesis. Glasgo University Press, 2014.

⁴ St.Clair, Gloriana. Tolkien’s Cauldron: Northern Literature and The Lord of The Rings. Carnegie Mellon University Press, 2000. – 256 p.

⁵ McPartland Tomas J. The lord of The Rings: Mythopoesis, heroism, and Providence // American Political Science Association annual conference, – Seattle: September 1, 2011

⁶ Маклаков И.А. Эпопея Дж.Р.Р.Толкина «Властелин колец» в контексте западноевропейских литературных традиций. Автореферат дисс. кан.филол.наук. – Казань: 2007. – 47 с.

⁷ Нестерова Е.А. Вещи и природные в мире фэнтези: «Властелин колец» Дж.Р.Толкиена, «Бесконечная история» М.Энде. Автореферат дисс. кан.филол.наук. – Москва, 2018. – 45 с.

⁸ Потапова О.С. мифотворчество Дж.Р.Р.Толкина: “Сильмариллион” в контексте современной теории мифа. Дис. Кандидат филологических наук. – Нижний Новгород: 2005. – 200 с.

⁹ Мартыненко А.В. Логика фантастического: историко-культурный аспект изучения авторского мифотворчества на материале трилогии Дж.Р.Р.Толкиена «Властелин колец». Автореферат дисс. кан.филол.наук. – Москва: 2009. – 49 с.

¹⁰ Вейкуть Маргарита. Космогонические мифы в творчестве Дж.Р.Р.Толкина (на основе анализа произведения «Сильмариллион») // Uventus in litteratura : материалы 74-й и 75-й научных конференций студентов, магистрантов и аспирантов БГУ / редкол.: А. М. Бутырчик [и др.]. – Минск: РИВШ, 2018. – 110 с.

Fentezi adabiyotini tadqiq etish bo'yicha ham ma'lum bir ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, M.A.Galkinaning maqolasi fentezi adabiyotining janr xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan bo'lsa¹¹, Ye.V.Xaritonova hamda M.S.Fokinalarning ilmiy maqolasi fentezi janri adabiyotidagi mifonomik makon xususiyatlarini tadqiq etadi¹². A.V.Brovina hamda D.M.Skakun ilmiy maqolasida esa rus va ingliz tillaridagi fentezi adabiyoti xususiyatlari tadqiq etiladi¹³.

O'zbek adabiyotshunosligida fentezi adabiyotiga qiziqish XXI asrda boshlangan. Xususan, D.A.Nasriddinov tadqiqotida Jorj Martin fentezi asarlari poetikasini tadqiq etgan¹⁴ bo'lsa, M.I.Tursunova ilmiy tadqiqotida J.Rouling qalamiga mansub "Harri Potter" asaridagi realistik va fantastik kategoriyalar uyg'unligi tahlilga tortilgan¹⁵. N.A.Saidova ilmiy tadqiqotlarida esa ingliz bolalar adabiyotida fentezi janrining mifopoetik xususiyatlari tadqiq etilgan.¹⁶ U.Ko'chimov, M.Obidjonova ilmiy ishlarida fantastik asarlarda badiiy psixologizm, ingliz va o'zbek fantastik hikoyachiligida mushtarak va original tendensiya masalalari tadqiq etilgan¹⁷.

O'zbek kitobxonlari tomonidan Jon Tolkin ijodiga qiziqish ham joriy asrning ikkinchi o'n yilligida, asosan "Uzuklar hukmdori" trilogiyasining kinoversiyasi taqdim etilganidan keyin boshlandi. Adibning mazkur trilogiyasi o'zbek tiliga ilk bor 2019-yilda tarjimon Sh.Z.Dolimov tomonidan o'girilgan.¹⁸ Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek adabiyotshunosligida Jon Tolkin asarlari poetikasiga doir ilmiy tadqiqotlar hozircha monografik planda amalga oshirilmagan. Qolaversa, adib asarlarida foydalanilgan arxetiplar va epik an'analarning transformatsion talqini masalasi ham adabiyotshunoslikda tadqiq etilishi lozim bo'lgan ishlardandir. Ushbu dissertatsiya o'zbek adabiyotshunosligidagi bevosita mazkur masalaga bag'ishlangan birinchi tadqiqotdir. Tadqiqot natijasida yozuvchining badiiy maqsadini chuqurroq anglash, Jon Tolkin badiiy olamining

¹¹ Галкина М.А. О жанровом своеобразии фэнтези // Театр. Живопись. Кино. Музыка. – Москва: 2021. №1. – 108 с.

¹² Харитоновна Е.В., Фокина М.С. Особенности мифонимического пространства в зарубежной литературе жанра фэнтези (на материале произведений Дж. Толкина и Дж. Мартина) // Russian Linguistic Bulletin. 4 (12) 2017.

¹³ Бровина А.В., Скакун Д.М. Особенности художественного жанра фэнтези в английском и русском языках // Филологические науки. Гуманитарный научный вестник, 2022. №5. – 115 с.

¹⁴ Насриддинов Д.А. Жорж Мартин фэнтези асарлари поэтикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа фанлари доктори дис. автореферати. – Т., 2021. – 48 б; Насриддинов Д. Фэнтези ва фантастик асарларнинг бадий хусусиятлари // Жаҳон адабиёти қиёсий адабиётшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент: 2022. – 156 б; Nasriddinov D. Fantasy genre and its scientific interpretation in theoretical views // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. Issue – 1 № 2 (2023). – 155 б.

¹⁵ Tursunova M. "Zamonaviy o'zbek va ingliz bolalar adabiyotida fantastik va realistik kategoriyalar yg'unligi". Filol.fan bo'yicha falsafa fanlari doktori dis. avtoreferati. – Toshkent: 2024. – 48 б.

¹⁶ Саидова Н.А. «XX–XXI аср Инглиз болалар адабиётида фэнтези жанрининг мифопоэтик хусусиятлари». Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) автореф. – Т.: 2024; – 49 б; Саидова Н.А. Фэнтези адабиётининг жанрий хусусиятлари // Methods of teaching foreign languages – innovations, traditions, problems and solutions proceedings of International scientific-practical conference. – Тошкент: 2023. 309-310-бетлар; Saidova N.A. K.luyisning "Narniya yilnomalari"da bolalar fentezi an'analar // FarDU. Ilmiy xabarlar. Farg'ona, 2023. №3. – 493 б.

¹⁷ Кўчимов У. Фантастик асарларда бадий психологизм концепцияси (Рэй Брэдбери ва Хожиакбар Шайхов ижоди мисолида) Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс... – Тошкент, 2020; – 151 б; Обиджонова М. Инглиз ва ўзбек фантастик хикоячилиги: оригинал ва муштарак тенденциялар (Рэй Бредбери ва Хожиакбар Шайхов ижоди мисолида. Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент: 2022. – 169 б.

¹⁸ Tolkin J.R.R. „Uzuklar hukmdori“ (o'zbek tiliga Sh.Dolimov tarjimas). – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – 320 б.

xususiyatlarini uning butun faoliyati, qolaversa, ingliz adabiyoti va madaniyati fonida namoyish etish, yozuvchining keyingi davrlardagi fentezi adabiyotiga ta'sirini aniqlash imkoniyati tug'iladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasining "Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va chet tillari o'qitishning dolzarb muammolari" mavzusidagi kompleks ilmiy tadqiqotlar rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Jon Tolkinning "Xobbit" va "Uzuklar hukmdori" asarlaridagi arxetiplar va epik an'analar badiiy talqinining poetik xususiyatlarini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

adabiyotshunoslikda arxetiplar va epik an'analar masalasiga doir nazariy qarashlarni, badiiy asarlarda arxetiplar va ramziy obrazlarni tasniflash muammolarini o'rganish;

"Xobbit" asarida o'z ifodasini topgan qahramon arxetiplari transformatsion talqinining poetik xususiyatlarini tadqiq etish;

Jon Tolkin asarlarida tasvirlangan epik an'analarning zamonaviy badiiy talqinini tadqiq etish orqali ularning badiiy vazifasini aniqlashtirish;

"Uzuklar hukmdori" romanida arxaik epos an'analari rivoji hamda qahramonlik eposi an'analarning transformatsion talqinining asar poetikasidagi ahamiyatini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti Jon Tolkinning "Uzuklar hukmdori" va "Xobbit" romanlaridagi markaziy arxetiplar va epik an'analardan iborat.

Tadqiqotning predmetini "Uzuklar hukmdori" va "Xobbit" romanlaridagi arxetiplar va epik an'analarning poetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (poetika, badiiy matn tahlili), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish) metodlar majmui qo'llanilgan. Shuningdek, badiiy asarni tahlil etish tamoyillari usullari, intertekstual interpretatsiya, diaxron hamda sinxron tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Xobbit" an'anaviy arxetiplar adibning badiiy maqsadlari natijasida to'liq va noto'liq transformatsiyaga uchragani va bu orqali hikoyani zamonaviy kontekstda o'quvchilar uchun tushunarli qilishga erishgani, transformatsion arxetiplar shaxsiy o'sish, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash va o'zlikni anglash allegoriyasiga aylanishi aniqlangan;

"Xobbit" hamda "Uzuklar hukmdori" asarlarida o'quvchi bir vaqtning o'zida hikoyani sarguzasht, yaxshilik va yomonlik haqidagi masal yoki Skandinaviya dostonlarining aks-sadosi sifatida qabul qilishi mumkinligi, arxetip qahramonning sayohati bir vaqtning o'zida tom ma'noda ham geografik ko'chish, ham ma'naviy o'sishni anglatishi dalillangan;

"Xobbit" asarida qahramon arxetiplarning statik epik modeldan dinamik zamonaviy modelga aylanishi, bosh qahramonlarning anti-qahramonlik

boshlang'ich holatidan axloqiy-psixologik sinovlar orqali kichik jasorat etikasi asosida haqiqiy qahramonga aylanishi, ularning g'alabasi kuch bilan emas, balki irodaning mustahkamligi, rahm-shafqat va sadoqat orqali qo'lga kiritilishi, bu esa epik an'anani yangicha talqin etish bo'lib, haqiqiy buyuklik jismoniy qudratda emas, balki axloqiy matonatda namoyon bo'lishini ko'rsatishi dalillangan;

“Uzuklar hukmdori” romanida boshqa epik an'analardan farqli ravishda O'rta Yer haqidagi afsonaviy dunyo kvenya, sindarin kabi tillarning yaratilishidan boshlanishi, asar o'zida qadimgi eposlarga xos epik an'analardan bilan birga ritsarlik romanlari xususiyatlarini ham mujassam etgani hamda arxaik epos hamda qahramonlik eposlari an'analarning zamonaviy talqinda tasvirlangani asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Dissertatsiya ishining amaliy natijalari quyidagilar bilan belgilanadi:

Jon Tolkin asarlaridagi olamning badiiy manzaralariga doir asosiy strukturaviy va poetik xususiyatlarini tahlil etish imkoniyatlari kengaytirilgan;

adib tomonidan foydalanilgan arxetiplar to'liq va noto'liq transformatsiyalarga uchragan guruhlariga bo'lingan va ularning asar poetikasidagi badiiy vazifalari izohlangan;

“Xobbit” hamda “Uzuklar hukmdori” asarlaridagi obrazlar tizimidagi markaziy arxetiplarning mifologik asoslari, turli badiiy detallarning ramziy ma'nolari hind-yevropa xalqlarining eng qadimgi mifologik an'alariga borib taqalsa-da, ular ko'p qatlamli semantik yukni ko'tarishi, zamonaviy dunyoning siyosiy-ijtimoiy, ekologik muammolarini tasvirlashi kabi poetik xususiyatlarini tahlil etish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot mavzusining O'zbekiston Respublikasi rivojlanishning Harakatlar strategiyasi maqsadlariga muvofiqligi, jahon miqyosida ilmiy-nazariy qarash, amaliy tajribalar o'rganilganligi, qo'llanilgan tadqiqot usullari, ilmiy-nazariy qoidalar bilan; original til va tarjimadagi tahlil qilingan materialning hajmi kattaligi bilan; adabiyotshunoslikda avval o'tkazilgan tadqiqotlarning nazariy qoidalari tajribasi, shuningdek o'tkazilgan tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishi nazariy qoidalariga mosligi bilan ta'minlanadi; xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga tadbiiq etilgan, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, u adabiyotshunoslikda yuzaga kelgan yangi yo'nalishlar va mavzularning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganish, ingliz adabiyotida yaratilgan asarlarning tabiatini lingvistik va poetik jihatdan o'rgangan holda ularning mazmuniy-uslubiy jihatlarini aniqlash va badiiy asar tahlilida talqin etish yo'li hamda imkoniyatlarini belgilash, va shu orqali tegishli davrning to'laqonli ingliz madaniy xususiyatlarini ko'rsatish uchun ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan xulosalar va katta ko'lamdagi yangi adabiy materiallardan “Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti tarixi”, “Jahon adabiyoti”, “Adabiy oqimlar taraqqiyoti”, “Zamonaviy xorijiy adabiyot”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Adabiy aloqalar ”, “Angliya-Amerika adabiyoti” fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish, ma'ruza va

seminar mashg'ulotlarni olib borish, bitiruv malakaviy va magistrlik ishlarini bajarish, shuningdek, ingliz tili va adabiyoti yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar, o'qituvchilar foydalanishlari uchun ingliz adabiyotiga oid yangi o'quv materiallarini ishlab chiqishda, romantizm davri adabiyotiga oid risola, o'quv qo'llanmalarni yozishda, ingliz adabiyoti tarixi bo'yicha umumiy kurslarni o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Jon Tolkin asarlarida afsonaviy arxetiplar va epik an'analarning badiiy talqini” mavzusidagi tadqiqot jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

Jon Tolkin mifologik asarlarining falsafiy va estetik tamoyillari XX asr Yevropa adabiyoti kontekstida jahon urushlari va ma'naviy inqiroz davrida o'rta asr mifopoetik an'anasi va madaniy o'ziga xoslikni izlashning noyob sintezi ekani haqidagi ilmiy xulosalardan 2022-2024-yillarga mo'ljallangan IL-402104209. “Axborot qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” bo'yicha innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan berilgan № 04/1-5642 sonli ma'lumotnoma) Natijada loyiha ishtirokchilari Tolkin XX asrdagi ma'naviy inqirozni mifologiya orqali yangi tarzda izohlaganini tushundilar. Bundan tashqari, ular adib o'rta asr miflarini zamonaviy g'oyalar bilan birlashtirib, madaniy o'ziga xoslikni qayta ko'rsatganini angladilar.

“Xobbit” hamda “Uzuklar hukmdori” asarlaridagi obrazlar tizimidagi markaziy arxetiplarning mifologik asoslari, turli badiiy detallarning ramziy ma'nolari hind-yevropa xalqlarining eng qadimgi mifologik an'alariga borib taqaladigan ko'p qatlamli semantik yukni ko'tarishi, “Uzuklar hukmdori” romani o'zida qadimgi eposlarga xos epik an'alar bilan birga ritsarlik romanlari xususiyatlarini ham mujassam etgani hamda asarda arxaik epos hamda qahramonlik eposlari an'alarining zamonaviy talqinda tasvirlangani haqidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, “O'zbekiston–24” ijodiy birlashmasi, “O'zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Jahon adabiyoti”, “Ta'lim va taraqqiyot” hamda “Adabiy jarayon” nomli dasturlarining 2025-yil fevral va avgust oylari sonlari senariysida amaliy qo'llanildi. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Respublika teleradiomarkazi davlat muassasasining 2025-yil 28-noyabrdagi 05-09-1913-son ma'lumotnomasi). Natijada teleradiodasturlar mazmuni badiiy va ilmiy jihatdan boyitildi hamda teletomoshabinlar Tolkin asarlaridagi obrazlar va ramzlarning asl ma'nosi hamda ularning qadimgi mifologiyaga bog'liqligi haqida aniq tushunchaga ega bo'lishdi.

“Xobbit” asarida adib tomonidan an'anaviy arxetiplardan unumli foydalanilgani, biroq ayrim holatlarda bu arxetiplar adibning badiiy maqsadlari natijasida to'liq va noto'liq transformatsiyalarga uchragani va zamonaviy talqinda tasvirlangani haqidagi ilmiy ma'lumotlardan bajarilishi 2024-2025-yillarga mo'ljallangan “ERASMUS+ Capacity Building Project 101129076 EMPOWER: Women Entrepreneurship, Empowerment, employability and self-confidence” loyihasi doirasida foydalanilgan (Namangan davlat chet tillari instituti tomonidan

berilgan EMPOWER-0129-sonli ma'lumotnoma). Natijada tadqiqot Tolkin "Xobbit" asarida arxetiplarni qayta o'zgartirib, ularga yangi va zamonaviy ma'no berganini ko'rsatdi. Shuning uchun, bu o'zgarishlar mifologik obrazlarning mazmunini yanada ochiqroq va tushunarliroq qilib namoyon etdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya natijalari 2 ta Respublika, 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi yuzasidan jami 19 ta ish e'lon qilingan. Jumladan, tadqiqotning asosiy mazmuni, xulosa va natijalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan davriy nashrlarda 8 ta xususan, respublika miqyosidagi jurnallarda 5 ta, xalqaro nashrlarda 3 ta ilmiy maqolalarda aks etgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 146 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganganlik darajasi yoritilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko'rsatib o'tilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Adabiyotshunoslikda arxetiplar va epik an'analar masalasiga doir nazariy qarashlar**" deb ataladi va ikki fasldan iborat. Birinchi fasl "**Adabiy arxetiplar va ularning tasnifiy xususiyatlari**" deb nomlangan bo'lib, mazkur faslda arxetip obrazlar hodisasi nazariy jihatdan asoslanib, ularning badiiy tafakkur, milliy ong va madaniy xotira shakllanishidagi o'rni yoritiladi. Arxetip obrazlar muayyan xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, etnik o'ziga xosligi, axloqiy-me'yoriy qarashlari va estetik didining badiiy in'ikosi sifatida talqin qilinadi, ular xalq og'zaki ijodi, mifologiya, din, marosimlar va yozma adabiyotda barqaror ramzlar tizimi tarzida saqlanib, avloddan-avlodga o'tadi. Shu sabab arxetip obrazlar tarixiy-madaniy qatlamlar o'rtasida "ma'naviy ko'priq" bo'lib, konkret voqelikni umumlashgan timsolga aylantiradi, matn ma'no qatlamlarini chuqurlashtiradi hamda milliy identitet va kollektiv xotira uzviyligini ta'minlaydi. Ular zamonaviy adabiyotda ham yangicha poetik shakllarda talqin qilinib, "an'ana va innovatsiya" dialektikasida yangi semantik yuklama bilan boyib borayotgan dinamik estetik hodisa sifatida qaraladi.

Fasl davomida "arxetip" va "arxetip obraz" tushunchalari o'rtasidagi farq alohida aniqlashtiriladi. Karl Gustav Yung nazariyasiga tayangan holda arxetiplar inson ongining chuqur, universal va o'zgarmas kollektiv qatlamini tashkil qiluvchi ibtidoiy ruhiy tuzilmalar sifatida, arxetip obrazlar esa ana shu psixik matritsaning muayyan tarixiy, madaniy va adabiy kontekstdagi konkret badiiy ifodasi sifatida talqin etiladi. Demak, ona, qahramon, donishmand singari arxetiplar biologik-

psixik asos bo'lsa, ularning Demetra, Rustam, Don Kixot, tasavvufiy pir, zamonaviy fantastika qahramonlari kabi ko'rinishlari turli adabiy an'analarda va davrlar kesimida shakllangan arxetip obrazlar sifatida tushuntiriladi. Arxetip obrazlarning polisemantik va moslashuvchan tabiati ularning bir adabiy davrdan boshqasiga o'tish jarayonida semantik maydonini yangilashi, diniy-estetik funksiyadan ijtimoiy, psixologik yoki ekzistensial talqinga siljishi bilan izohlanadi.

Nazariy asos sifatida K.G.Yungning kollektiv ongsizlik va arxetiplar haqidagi kontsepsiyasi, J.Kempbellning "monomif" va qahramonlik safar modeli, N.Frayning arxetipik janrlar va mifologik strukturalar tasnifi, G.Dyurand va R.Greyvsning ramz, "oq ma'buda" va tabiat obrazlari haqidagi mifopoetik qarashlari, J.J.Freyzerning marosim va miflar orqali arxaik ramzlarni tahlil etuvchi konsepsiyasi, shuningdek, G.Bachelard, Yu.Lotman va D.Lihachyovlarning fazoviy-tabiiy timsollarni semiotik va madaniy model sifatida sharhlovchi yondashuvlari tizimli ravishda umumlashtiriladi. Bu yondashuvlar asosida arxetip obrazlarning kognitiv (bilish), semiotik (belgi-ma'no), antropologik va madaniy funksiyalari ochib beriladi; ularning jahon adabiy jarayonida universal kod, madaniyatlararo muloqot vositasi va ijodiy ilhom manbai sifatidagi ahamiyati asoslandi va arxetip obrazlarni o'rganish nafaqat alohida matnlarni tahlil qilish, balki adabiyotning ichki mexanizmlarini, poetik tafakkurning evolyutsiyasini va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi murakkab uyg'unlikni anglash uchun muhim ilmiy-nazariy asos ekani e'tirof etildi

Adabiy arxetiplarni tipologik jihatdan tizimlashtirishga bo'lgan ilmiy urinishlar orasida Y.M.Lotman, Y.M.Meletinskiy, V.N.Toporov, B.A.Uspenskiy kabi taniqli olimlarning ishlari alohida ajralib turadi. Ularning yondashuvlari madaniy semiosfera, mifologik tafakkur, matnlararo aloqalar va simvolik strukturalar asosida arxetiplarni tahlil qilish imkonini bergan. Ayniqsa, Lotmaning madaniy kod va semiotik tizim haqidagi qarashlari arxetiplarni faqat psixologik emas, balki sotsiomadaniy fenomen sifatida ham tahlil qilishga asos bo'ladi.

Karl Gustav Yungning arxetiplar haqidagi psixoanalitik nazariyasi bu borada muhim asos bo'lib xizmat qilgan bo'lsa-da, u ham arxetiplarni mukammal tizimlashtirishga urinmagan. Yung arxetiplarni insoniyat ongosti (kollektiv ongsizlik) tarkibida mavjud bo'lgan qadimiy va universal obrazlar sifatida talqin etgan hamda ular miflar, ertaklar, diniy matnlar va badiiy asarlarda namoyon bo'lishini qayd etgan. U tomonidan tasvirlangan asosiy arxetiplar "Ona", "Ilohiy bola", "Ota", "Anima", "Animus", "Soyabon" (Yung terminologiyasida "Soya"), "Triksler" (Hiylakor), "Persona", "Donishmand" va boshqalar – chuqur psixologik va mifologik mazmunga ega bo'lishiga qaramay, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tizimli ravishda ishlab chiqilmagan¹⁹.

Adabiy arxetiplarni tizimlashtirish va tasniflash borasidagi muhim urinishlardan biri rus tadqiqotchisi Y.V.Domanskiyning "Adabiy matnda arxetipik ma'nolarning ma'no shakllantiruvchi roli" nomli tadqiqotida ilgari surilgan. Ushbu ishda muallif arxetipik motivlarni semantik asosda guruhlash orqali ularga

¹⁹ Beebe, John. *Energies and Patterns in Psychological Type: The Reservoir of Consciousness*. London: Routledge, 2016. – 189 p.

funksional va strukturaviy yondashishga harakat qilgan. Domanskiy arxetipik motivlarni uch asosiy guruhga ajratadi:

1. Tabiat tasvirlari va olamning unsuriy strukturalari bilan bog‘liq motivlar – bu yerda tabiat hodisalari, iqlim unsurlari, mavsumiy o‘zgarishlar va tabiiy kuchlar bilan bog‘liq obrazlar ko‘zda tutiladi.

2. Inson hayot davrlari, asosiy bosqichlari va hayotiy kategoriyalari bilan bevosita bog‘liq motivlar tug‘ilish, o‘shish, yetimlik, qarilik, o‘lim kabi universal hayotiy kechinmalar va holatlarning arxetipik shakllari nazarda tutiladi.

3. Insonning fazoviy joylashuvi bilan xarakterlanuvchi motivlar bunda “uy”, “o‘rmon”, “yo‘l”, “sahar” kabi fazoviy tushunchalarning arxetipik ifodalanishi tahlil qilinadi²⁰.

“Epik an‘analar va zamonaviy adabiyot” deb ataluvchi ikkinchi faslda epik janr va zamonaviy adabiyotda epik an‘analar o‘rni haqidagi fikrlar yoritilgan. Bu fasl epik an‘analarning adabiyotdagi o‘rni, zamonaviy sifatli tafakkurdagi transformatsiyasi hamda bugungi global adabiyotdagi funksional-ma‘naviy ahamiyatini yaxshilashga bag‘ishlangan. Epos eng qadimiy va fundamental adabiyotdan biri bo‘lib, insoniyatning kollektiv xotirasi, tarixiy qurol va madaniy o‘zligini shakl sifatida ifodalovchi universal model sifatida shakllangan. Epik janr tasvirda insonning o‘z tarixini so‘z orqali saqlab qolish va avlodlarga kuzatishi mujassamdir.

Zamonaviy adabiyotda epik an‘analar yo‘qolib ketmagan, balki yangi falsafiy, estetik va madaniy kontekstlarda qayta talqin qilingan. Agar eposda qahramonlik jasorat, urush va tarixiy bilan bog‘langan bo‘lsa, XX–XXI asr adabiyotida epiklik insonning ichki dunyosi, ruhiy sayohati, xotira va identitet masalalari bilan uzviylashadi. Shu bois zamonaviy epos shakllari roman, fantastika yoki postmodern matn ko‘rinishida bo‘lsa-da, mohiyatan epik ongning davomidir.

M.Baxtinning eposni “mutlaq o‘tmish” janri sifatida talqin qilishi klassik va zamonaviy epiklikni o‘ziga xos farqini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Baxtinga ko‘ra, epos yakunlangan va muqaddas tarixni ifodalasa, roman ochiq, davom etayotgan zamon janridir. qayta postmodern davrda bu qarama-qarshilik bartaraf etilib, epik strukturalar roman poetikasiga faol singib ketadi. Zamonaviy adabiyotda epos monologik emas, balki dialogik, intertekstual va ko‘p ovoqli tus oladi.

Zamonaviy epik tafakkur namunalarini J.Joys, T.Morrison, Ch.Aytmatov, N.Geyman kabi yozuvchilar ijodida ko‘rish mumkin. Joysning “Ulis” romani Homerning “Odisseyaya” sini zamonaviy shahar makoniga ko‘chirib, epik sayohatni kundalik hayot poetikasiga aylantiradi. Mazkur faslda epik an‘analarning falsafiy talqini ham keng yoritiladi. N.Fray eposni mif bilan bog‘langan arxetipik janrdagi barcha baholab, uni adabiyot janrlarining manbai deb hisoblaydi. P. Rikyor esa eposni vaqtni hikoya orqali tartiblash mexanizmi sifatida talqin qilib, epik matn insonni tarixiy emas, balki ma‘naviy va mifologik mantiqda anglash ekanini ta‘kidlaydi.

²⁰ Доманский Ю.В. Смыслообразующая роль архетипических значений в литературном тексте. Пособие по спецкурсу. / Ю.В. Доманский. – Тверь, 2001. – С. 31.

Modern va postmodern adabiyotda epiklik shaklan parchalanib, mazmunan chuqurlashadi. T.S.Eliotning “The Waste Land” asarida epik struktura zamonaviy tanazzul va ma’no yo‘qolishi fonida qayta quriladi. J.Joys va V.Vulf ijodida esa epik makon inson ongining ichki hududiga ko‘chadi. M.Atvud, N.Geyman, U.Eko asarlarida esa epik motivlar patriarxal yoki absolut g‘oyalardan xoli holda, ko‘p talqinli va ochiq tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’kidlash kerakki, epik an’analar zamonaviy adabiyotda tarixiy janr sifatida emas, balki ontologik madaniy paradigma sifatida yashab keladi. U bugungi adabiyotda insonning o‘zligini anglash, tarix va xotira bilan muloqot qilish, global madaniyatlararo dialogni boshqarish vositasiga aylangan. Shu bois epik an’analar zamonaviy adabiyotda o‘tmishning aks-sadosi emas, balki kelajakni anglashning uslubi sifatida talqin qilinadi.

Umuman olganda, faslda epik janr tarixiy shakl sifatida emas, balki adabiyotdagi g‘oyaviy-ontologik paradigma sifatida talqin qilinadi: u bugun ham insoniyatning o‘z tarixini hikoya qilish, o‘zligini anglash va madaniyatlararo muloqot olib borish ehtiyojidan kelib chiqadigan universal badiiy model sifatida izohlanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Jon Tolkin asarlarida arxetiplarning zamonaviy badiiy talqini”** deb atalib, ikki fasldan iborat.

Birinchi fasl **““Xobbit” va “Uzuklar hukmdori” asarlarida arxetiplar talqini va tahlili**” deb nomlanib, ushbu faslda J.R.R.Tolkinning “Xobbit” va “Uzuklar hukmdori” olami arxetipik va mifopoetik tahlil asosida yoritiladi. Asosiy e’tibor qahramonlar va badiiy detallar ortidagi keng madaniy-ma’naviy qatlamni ochishga qaratilgan. Bilbo, Gandalf, Smaug, Torin, Bard, Beorn, Elrond, Gollum, burgutlar va gnomlar kabi obrazlar Yung, Kempbell va mifologik an’analariga tayangan holda turli arxetiplar sifatida talqin etiladi: “kutilmagan qahramon”, “trikster”, “donishmand ihtiyoriy”, “quvg‘in qilingan shoh”, “xalq qahramoni”, “yashirin shoh”, “Soya”, “la’nat qurboni”, “chegara qo‘riqchisi”, “shoh–kohin” va boshqalar. Shu orqali Tolkien qahramonlari individual xarakter sifatida emas, balki inson ongidagi chuqur kollektiv timsollarning badiiy ifodasi sifatida ko‘rsatib beriladi.

Alohida ravishda Tolkin asarlaridagi buyumlar va artefaktlar (Uzuk, elf qilichi, Qora O‘q, Galadriel Ko‘zgusi va boshqalar)ning ikki qirrali tabiati bir tomondan, syujetni harakatga keltiruvchi predmet, ikkinchi tomondan esa hokimiyat, la’nat, xotira, taqdir kabi tushunchalarning ramziy markazi sifatidagi roli asoslanadi. Shuningdek, Tolkin dunyoni ramziylashtirarkan, geografik yo‘nalishlar (g‘arb, sharq, shimol, janub)ga Yevropa mifologiyasi va tarixiy tajribasiga mos semantik yuk yuklaydi.

Umuman olganda, fasl Tolkin poetikasini arxetipik–mifopoetik tizim sifatida talqin qiladi. Unda qahramonlar, makonlar, jonivorlar, buyumlar va raqamlar bitta yaxlit mifologik model tarkibida o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi. Shu tariqa, yozuvchining fantastik dunyosi zamonaviy epik tafakkurning chuqur qatlamlarini, kollektiv xotira va universal insoniy arxetiplarni badiiy shaklda qayta ishlab, yangi madaniyatlararo mif darajasiga ko‘tarilganligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Tadqiqotda mifologik motiv va obrazlarning zamonaviy fantastik adabiyot, xususan J.R.R.Tolkinning “The Hobbit, or There and Back Again” asarida

makoniy-arxetipik tizim orqali qanday badiiy vazifa bajarishi tahlil qilinadi. Mifologiya mualliflik olamini quruvchi asosiy manba sifatida talqin qilinib, fazoviy arxetiplar – uy, yo‘l, o‘rmon, tog‘, yerosti, suv, osmon va chegara – eposga xos “safar” va initsiatsiya modelini zamonaviy badiiy struktura bilan bog‘lab beradi. Asarda Uy (Bilbo kulbasi, Elrond uyi, Beorn maskani) xavfsizlik, qulaylik va “o‘z” makoni arxetipi sifatida talqin qilinib, dushmanona tashqi olamga qarama-qarshi qo‘yiladi. Yo‘l arxetipi qahramonning ruhiy kamolot bosqichlarini (uydan chiqish, sinovlar, qaytish) ifodalaydi; qorong‘u o‘rmon va yerosti dunyosi (goblin va Gollum makonlari) sinov, qo‘rquv, o‘lim–tirilish, “soyalar bilan uchrashuv” lokusi sifatida izohlanadi. Yolg‘iz tog‘ (Erebor) kosmik o‘q va “markaz” arxetipi sifatida qahramonning o‘z soyasi va la‘natlangan xazina bilan to‘qnashuvini ramziy ifodalaydi; suv va osmon makonlari esa chegara, o‘tish, poklanish va ilohiy aralashuv (burgutlar motivi) ramzlari bilan bog‘lanadi.

Takidlash kerakki, “Xobbit”dagi fazoviy arxetiplar nafaqat fantastik olam geopoetik tuzilishini, balki qahramonning ichki transformatsiyasi qo‘rquvdan jasoratga, yopiq “o‘z” makonidan keng madaniy-kosmologik olamni anglashgacha bo‘lgan yo‘lini ifodalovchi mifopoetik model sifatida izohlanadi.

Bobning ikkinchi fasli **“Xobbit” romanida qahramon arxetiplarining transformatsion talqini** deb atalub, mazkur faslda adabiyotda transformatsiya hodisasi va uning o‘rni haqidagi qarashlar keltirilgan.

Tadqiqotda transformatsiya tushunchasi adabiy-mifopoetik jarayon sifatida talqin etilib, arxetip obrazlarning turli mifologik manbalardan J.R.R.Tolkin ijodiga o‘tishi va bu jarayonda ularning semantik hamda funksional o‘zgarishi tahlil qilinadi. Transformatsiya umumiy ma’noda sifat jihatdan tubdan yangilanish, bir holatdan boshqa - chuqurroq va murakkabroq holatga o‘tish jarayoni sifatida izohlanadi; adabiyotda esa u obraz, makon, g‘oya va motivlarning yangi kontekstda boshqa vazifa va ma’no kasb etishi bilan bog‘lanadi. Mazkur ishda Tolkin asarlarida turli mifologiyalardan o‘zlashtirilgan arxetip obrazlarning ikki yirik guruhi ajratiladi: 1) transformatsiyaga uchramagan arxetiplar (goblinlar, trollar, qorong‘ulik va “zulmat kuchlari” arxetipi va b.), ular skandinav va german folkloridagi shakliga deyarli monand holda qo‘llanadi (masalan, quyosh nurida trollarning toshga aylanish motivi); 2) transformatsiyaga uchragan arxetiplar, ya’ni Tolkin tomonidan ma’nosi, vazifasi yoki badiiy roli yangilangan obrazlar. Ikkinchi guruh doirasida qahramon (Bilbo Bagginsning “kichik odam”dan qahramonga aylanishi), donishmand yo‘lko‘rsatuvchi (Gandalfning klassik murabbiy arxetipidan farqli ravishda qahramonni mustaqil qaror qabul qilishga majbur etuvchi figura sifatida talqini), ajdaho (Smaugning faqat “yovuz kuch” emas, balki psixologik-axloqiy sinov va manipulyatsiya manbai sifatidagi ko‘rinishi), sehrli artefakt (Nibelung uzugi modelidan O‘rta Yer Uzuqlarining bosqichma-bosqich metafizik va axloqiy mazmun kasb etishi) hamda makon arxetiplari (Shire, Rivendell, Erebor, yerosti dunyosi va boshqalar)ning transformatsion modeli tahlil qilinadi.

Ishning nazariy asosini K.G.Yungning kollektiv ong va arxetip haqidagi qarashlari, J.Kempbelning “qahramonning safar yo‘li” monomif nazariyasi, M.Bodkin, M.L.fon Franz, E.Neymanlarning arxetip va mifopoetik strukturalar

haqidagi ishlari tashkil etadi. Shu bilan birga, mazkur mualliflar arxetip transformatsiyasini tizimli tiplarga ajratmaganligi qayd etilib, dissertatsiyada arxetip transformatsiyasining bir qator turlari taklif etiladi. Jumladan, estetik (badiiy) transformatsiya - arxetipning mohiyati saqlangan holda, ifoda uslubi va janr-estetik qiyofasining o'zgarishi (Bilbo qiyofasida epik qahramon modelining ironik-soddalashtirilgan varianti); axloqiy (etik) transformatsiya – an'anaviy “yaxshi/yomon” oppozitsiyasining murakkablashuvi, obrazning ichki ambivalent xususiyat kasb etishi (Smaug, xazina va ochko'zlik, Bilboning qahramonlikni “oddiylik” ichida kashf etishi); kontekstual transformatsiya – o'sha arxetipning boshqa tarixiy-madaniy sharoitda yangicha talqin qilinishi (epik qahramon modelining Frodo, Harri Potter kabi ichki travma va mas'uliyat bilan yuklangan obrazlarga ko'chishi); sintez transformatsiyasi esa bir obraz tarkibida bir necha arxetip qatlamlarining qo'shilishi (Gandalfning sehrigar, donishmand murabbiy, yo'lchi va qurbon arxetiplarini uyg'unlashtirgan ko'p qirrali figura sifatida shakllanishi) sifatida izohlanadi.

Tolkin ijodida arxetiplarning turli mifologiyalardan o'zlashtirilishi va transformatsiyasi O'rta Yer kosmologiyasini, shuningdek, zamonaviy fantastik adabiyotning chuqur ramziy-falsafiy qatlamlarini anglash uchun asosiy metodologik kalit sifatida namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Uzuklar hukmdori” asarida epik an'analarning zamonaviy talqini**” deb nomlanadi va uch fasldan iborat. Birinchi fasl **“Uzuklar hukmdori” romanidagi epik an'analari**” deb ataladi.

Ushbu faslda J.R.R.Tolkinning “Uzuklar hukmdori” roman epik an'analarning tajribasi, transformatsiyasi va zamonaviy ta'lim masalalari tahlili. Epik an'ana adabiyotda madaniy xotirani uzluksiz saqlab qoluvchi, davrlar va avlodlar o'rtasida g'oyaviy-estetik bog'liqlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin qilish. Shu nazardan, Tolkin ijodi eski epik merosni zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg'unlashtirgan noyob loyiha sifatida baholanadi.

“Uzuklardori” asari german-skandinav, kelt, fin, antik va xristian epi an'analari sintezga hukm bo'lib, muallif mualliflar manbalarini ongli ravshan qayta talqin qiladi. Roman, avvalo, “Beovulf” dostoni bilan g'oyaviy va strukturaviy uzviy bog'langan. Qahramonlarning ketma-ket sinovlaridan o', yovuz kuch bilan ketma-ket jang va jang motivi, boyluk davrining la'nati, kurashi, qahramonlik davrining yakuni topishi haqidagi ma'yus ohang “Beovulf” ruhini eslatadi. Sauronga qarshi kurash, elflarning O'rta Yerni tark etishi va sehrning so'nishi epik davr nihoyasini bildiruvchi ramziy voqealar sifatida talqin etiladi.

Skandinav mifologiyasi va “Qadimgi Edda” an'analari romandagi makon tuzilishi, gnomlar obrazi, runalar, sehrli qurollar va donishmand sayohatchi Gandalf timsolida yaqqol namoyon bo'ladi. Hukmronlik Uzugi motivi esa “Nibelunglar qo'shig'i” va “Völsunglar sagasi”dagi la'natlangan uzuk g'oyasi bilan bevosita bog'lanadi. Narsil qilichining Anduril sifatida qayta yaratilishi ham klassik epik qurol motivining davomidir.

